Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxonalar moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilimdorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi.....	1024
Ayubov Ilyos Iloxovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Joriy aktivlar auditida firibgarlik holatlarini aniqlash metodlarini takomillashtirish.....	1037
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohila Abdulmamidovna	



NAMANGAN VILOYATIDA IJTIMOIY TURIZM TADBIRKORLIGINI MAQSADLI BOSHQARISH MEXANIZMI

Yunusova Sohiba Abdulmamidovna

Namangan davlat universiteti
Menejment kafedrası katta o'qituvchisi
ORCID.0009-0006-6710-7314

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini samarali va maqsadli boshqarish mexanizmini ishlab chiqish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda amaliy takliflar berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, ijtimoiy turizm tadbirkorligi, boshqaruv mexanizmi, turizm dasturi, hududlar jozibadorligi.

Abstract: This article aims to analyze the management mechanisms developed to comprehensively reform the tourism sector of the Namangan region, increase regional income, and demonstrate the attractiveness of tourism, and to propose new mechanisms.

Key words: Namangan region, tourism entrepreneurship, management mechanism, tourism program, regional attractiveness.

Аннотация: Целью данной статьи является анализ механизмов управления, разработанных для комплексного реформирования сферы туризма Наманганской области, увеличения доходов региона и демонстрации привлекательности туризма, а также предложение новых механизмов.

Ключевые слова: Наманганская область, туристическое предпринимательство, механизм управления, туристическая программа, региональная привлекательность.

KIRISH

Bugungi globalashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida turizm nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta'minlovchi muhim sektor sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy turizm, ya'ni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini sayohat imkoniyatlari bilan ta'minlash orqali ularning hayot sifati va ijtimoiy integratsiyasini oshirish — zamonaviy tadbirkorlik shakllarining e'tibor markazida turibdi. Namangan viloyati, o'zining tabiiy go'zalligi, boy madaniy merosi va mehnatkash aholisi bilan, turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

Ijtimoiy tadbirkorlik metodologiyasi Jozef Banks [1], Ryszard Praszkiar, Andrzej Nowak [2], Alex Nicholls [3], El Ebrashi R. [4], Constant D. Beugré, Mark Durieux, Robert Stebbi va boshqa ko'plab mualliflarning asarlarida ko'rib chiqilgan, muhokama qilingan va bugunga qadar ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ijtimoiy turizm tadbirkorligi metodologiyasini kerakli ma'lumotlar to'plamini olish tizimi va texnologiyalari sifatida o'rganishda ijtimoiy tadbirkorlik tahlili quyi tizimiga muhim o'rin beriladi va uning mexanizmini o'rganishga, shu jumladan tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga juda ko'p ilmiy ishlar bag'ishlangan.



Xususan, ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlar mualliflari sifatida Sarah H. Alvord, James E. Austin, Shaker A. Zahra, J. Gregory Dees, Peter F. Drucker, Kara D. Boluk, Rafael Antonio Aquino va boshqalarni keltirish o'rinlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy turizm tadbirkorligini o'rganish uchun nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy usullar qo'llanildi: deduktiv va induktiv tahlil, qiyosiy tahlil, statistik baholash, chizma va maqsadli kontent tahlili.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiat va inson tomonidan yaratilgan turizm sohasi resurslari va imkoniyatlaridan insoniyatning barcha qatlamlari foydalanishi va bahramand bo'lishini ta'minlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat miqyosida aholining turizm sohasidagi faol ishtirokini ta'minlash uchun ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini keng ko'lamda isloh qilish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish hamda bu borada ko'plab ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz.

Hozirgi murakkab sharoitda ijtimoiy turizm tadbirkorlik faoliyatini boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan asosiy maqsad – turizm industriyasini rivojlantirish, mamlakat miqyosida fuqarolarning dam olish bo'yicha huquqlarini himoyalash, sayohat davomida turistlarning harakatlanish erkinligini ta'minlash, turizm sanoatida foydalaniladigan resurslarni oqilona taqsimlash, turistik resurslarni saqlash va ularning jozibadorligini oshirish, turistlarning barcha qatlamlari uchun turizmdan foydalanish bo'yicha me'yoriy bazani takomillashtirish, turizm sanoatini rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'larni yo'naltirish, turizm tadbirkorligi faoliyati sektorlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, turizm sohasining ilmiy va axborot ta'minotini shakllantirish hamda rivojlantirish, sohaga oid kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda sayohat va turizm (T&T) sohasini qo'llab-quvvatlovchi sharoitlar yaxshilanib bormoqda, biroq bu sohani rivojlantirish uchun hali ko'p ishlar amalga oshirilishi lozim. 2019–yildan beri TTDI reytingi yaxshilangan 71 davlatdan 52 tasini past va o'rta daromadli mamlakatlar tashkil etadi. 2019–2024–yillarda eng katta o'sishni qayd etgan yuqori daromadli davlatlar faqat Saudiya Arabistoni (+5.7 %, 50–o'rindan 41–o'ringa) va Birlashgan Arab Amirliklari (+4.4 %, 25–o'rindan 18–o'ringa) bo'ldi.

Qolgan eng katta o'sish ko'rsatgan davlatlar quyidagilardir:

O'zbekiston (+7.8 %, 94–o'rindan 78–o'ringa),
Kot-d'Ivuar (+6.4 %, 116–o'rindan 114–o'ringa),
Albaniya (+5.9 %, 78–o'rindan 66–o'ringa),
Tanzaniya (+4.5 %, 88–o'rindan 81–o'ringa),
Indoneziya (+4.5 %, 36–o'rindan 22–o'ringa),
Misr (+4.3 %, 66–o'rindan 61–o'ringa),
Nigeriya (+4.2 %, 113–o'rindan 112–o'ringa),
Salvador (+4.0 %, 101–o'rindan 97–o'ringa).

Bundan tashqari, yirik rivojlanayotgan T&T iqtisodiyotlari – Indoneziya, Braziliya (+3.3 %, 34–o'rindan 26–o'ringa) va Turkiya (+3.1 %, 37–o'rindan 29–o'ringa) – Xitoy (+1.0 %, 9–o'rindan 8–o'ringa) bilan birga TTDI reytingining yuqori choragiga kirdi.

Shunga qaramay, o'rtacha darajadagi o'sishga qaramasdan, past daromadli davlatlar hali ham TTDI bo'yicha past ball olgan mamlakatlarning qariyb 90 foizini tashkil etadi. Bu esa ushbu mamlakatlar T&T bozorida ulushini oshirish va kelajakdagi xavf-xatarlarga tayyor bo'lishni istasalar, ularning imkoniyatlarini yaxshilash uchun yanada ko'proq sarmoya kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqorida berilgan "Travel & Tourism Development Index – 2024" ko'rsatkichlari asosida O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirish va yuqori o'ringa ko'tarilishida ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kelgusida turizm sohasining nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga, balki aholining ijtimoiy ongini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy ong – bu jamiyat a'zolarining o'zlarini, atrof-muhitni, ijtimoiy munosabatlarni va umumiy hayotiy hodisalarni qanday idrok etishi, anglab yetishi va baholashini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlarini, e'tiqodlari, an'analari va ijtimoiy xatti-harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda ijtimoiy turizm tadbirkorligi faoliyatini amalga oshirishda yuqorida qayd etilgan turistlarning barcha qatlamlari uchun turizmdan foydalanishga oid nazariy asoslar va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilishni maqsad qilamiz.

Aynan shu o'rinda "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasining o'zi nima degan savol tug'iladi.



Ijtimoiy tadbirkorlik nazariyasi 1970–yillardan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, aynan shu davrda “ijtimoiy tadbirkor” atamasi paydo bo‘lgan. “Ijtimoiy tadbirkor” atamasi birinchi marta 1972–yilda Jozef Banks tomonidan uning “Ijtimoiy harakatlar sotsiologiyasi” nomli muhim asarida qo‘llanilgan bo‘lib, u bu atamani ijtimoiy muammolarni hal qilishda boshqaruv ko‘nikmalarini, hamda biznes muammolarini yechishda qo‘llash zaruratini ifodalash uchun ishlatgan.

Ijtimoiy tadbirkorlik amaliyoti 1980–yillarda shakllanib, dunyoda ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlovchi birinchi tashkilot – “Ashoka” – tashkil etilishi bilan keng ommalashgan. Ushbu tashkilot eng birinchi va eng yirik ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlovchi nodavlat tashkilotlardan biri bo‘lib, 1980–yilda Bill Drayton tomonidan tashkil etilgan va hozirda 90 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi. Tashkilotning bosh qarorgohi AQShning Vashington shahrida joylashgan.

Ashoka tashkilotining asosiy maqsadi — ijtimoiy tadbirkorlarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va butun dunyo bo‘ylab ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshiradigan kuchli tarmoqni yaratishga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, tashkilotlarga a‘zo bo‘lish va ularning dasturlarida ishtirok etish O‘zbekistonda ham ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi, deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda O‘zbekiston ham Ashoka tarmog‘iga kiradi. Ashoka o‘zining rasmiy veb-saytida mamlakatimizni faoliyat yuritayotgan davlatlar ro‘yxatiga kiritgan.

Ijtimoiy tadbirkorlik hodisasini o‘rganish, shuningdek ijtimoiy korxonalarining o‘ziga xos xulq-atvori, xarakteristikasi va tiplari haqida tushuncha berish, faqat shaxsiy boylik va biznes natijalariga emas, balki barqaror jamoat boyligini yaratishga qaratilgan tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasi iqtisodiy o‘sish adabiyotlarini shakllantirgan bo‘lsa, ijtimoiy tadbirkorlik nazariyasi iqtisodiy jihatdan barqaror va amalga oshiriladigan modellar orqali ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shuvchi omil bo‘lishi mumkin. Alex Nichollsning “Social Entrepreneurship: New Models of Sustainable Social Change” nomli kitobida ham ijtimoiy tadbirkorlikning yangi modellari va ularning barqaror ijtimoiy o‘zgarishlarga qanday hissa qo‘shishi muhokama qilingan.

Ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy ta‘sir, ijtimoiy o‘zgarish va transformatsiyaga e‘tibor qaratadilar. Shuningdek, ular ijtimoiy o‘zgarish va transformatsiyaga yo‘naltirilgan yangi tashkilot tiplari haqida tushuncha berish, ijtimoiy tashkilotlarning qanday rivojlanishini, dunyo sharoitlarining bu tashkilotlarga qanday ta‘sir qilayotganini va ularning ijtimoiy to‘qimani qanday saqlab qolishini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Ijtimoiy tadbirkorlik, ko‘p hollarda iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratish orqali jamiyatdagi muammolarni yechishga va ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida qaraladi. Mamlakat miqyosida ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ushbu yo‘nalishda ijtimoiy ehtiyojlarga innovatsion yechimlar topish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tadbirkorlar ko‘pincha “buzuvchi o‘zgarish agentlari” sifatida tilga olinadi. Ular ijtimoiy muvozanatga tizimli innovatsiyalar orqali o‘zgarishlar kiritadilar. Xususan, ijtimoiy tadbirkorlar ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot, inson huquqlari, ishchilar huquqlari, atrof-muhit, iqtisodiy rivojlanish va qishloq xo‘jaligi sohalarida faoliyat olib boradilar.

Ijtimoiy tadbirkorlik — bu ijtimoiy yoki ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan, ammo biznes modeli asosida amalga oshiriladigan tadbirkorlik shaklidir. Uning asosiy maqsadi — nafaqat moliyaviy foyda olish, balki jamiyatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishdir.

Demak, ijtimoiy tadbirkorlik ikki asosiy maqsadni birlashtiradi: iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy foyda. Bu, shunchaki pul ishlash emas, balki jamiyatga foyda keltirish uchun biznes yuritishdir. Bu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar faqat daromadni ko‘zlamaydi, balki jamiyatdagi muammolarni hal qilishga intiladilar.

Ijtimoiy tadbirkorlikni o‘rganish davomida biz mazkur maqolamizda ijtimoiy turizm tadbirkorligi tushunchasini turizm sohasida olib borilayotgan metodik qo‘llanmalarda, shuningdek O‘zbekistonda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar doirasida kengroq tatbiq etish va uni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur, degan xulosaga keldik.

Ijtimoiy turizm tadbirkorligi — bu aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (yoshlar, keksalar, nogironlar, kam ta‘minlangan oilalar va boshqalar) uchun turizm xizmatlarini jismoniy va iqtisodiy jihatdan mavjud holatda taqdim etishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Ushbu faoliyat jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, turizm xizmatlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu turdagi tadbirkorlik tijorat maqsadlari bilan bir qatorda ijtimoiy vazifalarni ham o‘z ichiga oladi va ko‘pincha davlat, notijorat tashkilotlari yoki ijtimoiy mas‘ul tadbirkorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Ijtimoiy turizm tadbirkorligi ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar uchun turizm xizmatlarini imkon qadar qulay va arzon shaklda taqdim etishga yo‘naltirilgan. Bunda asosiy maqsad — iqtisodiy foyda olishdan ko‘ra, jamiyatda teng imkoniyatlar va ijtimoiy inklyuzivlikni ta‘minlashdir.

Ijtimoiy tadbirkorlar, odatda, xavf-xatar va mehnatga tayyor bo‘lib, o‘z loyihalari orqali jamoaga ijobiy o‘zgarish olib kelishni maqsad qiladilar. Ular ko‘pincha yordamga muhtoj hududlarga xizmat ko‘rsatish, xayriya ishlarini yo‘lga qo‘yish kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanadilar.

Ijtimoiy tadbirkorlik ko‘pincha ijtimoiy muammolarni iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratish orqali yengillashtirish jarayoni sifatida ta‘riflanadi. Bu — jamiyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish vositasidir. Tijorat faoliyati va resurslardan



samarali foydalanish orqali ijtimoiy tadbirkorlar qondirilmagan ehtiyojlar uchun innovatsion yechimlarni taklif qiladigan “muammo yechuvchilar” sifatida namoyon bo’ladilar.

Ijtimoiy tadbirkorlar ko’pincha tizim darajasida innovatsiyalar orqali ijtimoiy muvozanatda o’zgarishlar yaratadigan “buzuvchi o’zgarish agentlari” sifatida ataladilar. Ayniqsa, ular ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy farovonlik, inson huquqlari, ishchilar huquqlari, ekologiya, iqtisodiy taraqqiyot va qishloq xo’jaligi sohalarida katta qiymat yaratishga qaratilgan faoliyatlar olib boradilar.

Albatta, har qanday sohada bo’lgani kabi, bu yo’nalishda ham bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Jumladan: moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, bozor talabi bilan bog’liq qiyinchiliklar, ijtimoiy ta’sirni o’lchashdagi murakkablik, davlat tomonidan yetarlicha qo’llab-quvvatlanmaslik va boshqa omillar mavjud.(1-jadval)

1-jadval. Ijtimoiy turizm tadbirkorligining asosiy xususiyatlari¹

Xususiyati	Tavsifi
Ijtimoiy yo’naltirilganlik	Daromaddan ko’ra, aholining turizmga bo’lgan teng huquqli kirishini ta’minlash muhimroq.
Foyda va ijtimoiy ta’sir uyg’unligi	Tadbirkor foyda olishi mumkin, lekin bu foyda ijtimoiy vazifalarni bajarish orqali yaratiladi.
Hamkorlik modeli	Davlat, NNT, xususiy sektor va jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlaydi.
Barqarorlik va mahalliy rivojlanish	Mahalliy aholining ishtiroki va foyda olishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy turizm tadbirkorligi (ITT) ko’plab turizm olimlarining qiziqishini orttirayotgan bo’lsa-da, ITT haqidagi bilimlarning qamrovi, shuningdek, bu tushunchani yanada chuqurroq va aniqroq tushunish yo’llari haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Ushbu tushunchaning O’zbekiston miqyosida ayrim elementlari mavjud, ammo ular yagona tizimga solinmagan hamda ularning qanday ishlashi kerakligi borasida mexanizmlar ishlab chiqilmagan. Ushbu bo’shliqlarni to’ldirish maqsadida, biz 2006-yil – 2025-yil oralig’ida ushbu mavzuga oid nashr etilgan akademik maqolalarni statistik tahlil qildik.(2-jadval)

2-jadval. Ijtimoiy turizm tadbirkorligi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar yillar kesimida²

Yillar	Soni
2006 yil	1
2007 yil	0
2008 yil	2
2009 yil	1
2010 yil	0
2011 yil	5
2012 yil	5
2013 yil	2
2014 yil	10
2015 yil	13
2016 yil	19
2017 yil	25
2018 yil	23
2019 yil	16
2020 yil	18
2021 yil	6
2022 yil	17
2023 yil	27
2024 yil	26

Yuqoridagi statistik ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, ijtimoiy turizm tadbirkorligi (ITT) bo’yicha global miqyosda olib borilgan tadqiqotlar soni yetarli emas. Ushbu yo’nalishda olib borilgan tadqiqotlar yoki amaliy ishlarning soni cheklangan. Buning sababi, bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyoti va siyosatida yuz berayotgan o’zgarishlar, ko’plab davlatlarning rivojlanayotgan iqtisodiyotlar qatoriga kirishi bilan bog’liq. Shunday ekan,

1 Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

2 Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.



ijtimoiy turizm tadbirkorligiga yetarli e'tibor qaratilmayotganini ta'kidlash mumkin. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy tadbirkorlikni ikki darajada tahlil qiladi:

Makro daraja – Bu yondashuv turli ijtimoiy-ilmiy fanlarning, xususan iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya va falsafaning o'zaro integratsiyasini talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali tizimlarni tahlil qilishga qaratilgan. Mazkur integrativ yondashuv zamonaviy global chaqiriqlar – ekologik inqiroz, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy o'sishning cheklanishi va siyosiy boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Mikro daraja – Ushbu yondashuv doirasida psixologiya va antropologiya fanlari asosida individual subyektning ongli harakatlari, refleksivlik (ya'ni o'z-o'zini tahlil qilish va anglash qobiliyati) hamda agentlik (agency) kabi tushunchalar o'rganiladi. Bu fanlar insonning ichki kognitiv jarayonlari, hissiy holatlari va ijtimoiy kontekstdagi identiteti orqali uning jamiyatdagi ishtirokini tahlil qilishga xizmat qiladi. Refleksivlik bu nuqtai nazardan individning o'z harakatlari, niyatlari va qarorlarini ijtimoiy hamda madaniy strukturalar bilan bog'lab, ularni ongli ravishda tahlil qilish qobiliyatini anglatadi.

Mazkur tadqiqot sohasi iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, shuningdek psixologiya va antropologiya fanlarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab va ko'p qirrali tizimlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Bunday fanlararo yondashuv zamonaviy global muammolar – ekologik inqiroz, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy o'sishning cheklanishi va siyosiy boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasini tizimli o'rganishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, psixologiya va antropologiya fanlari doirasida refleksivlik hamda agentlik tushunchalari individual subyektning jamiyatdagi faol ishtiroki va ijtimoiy transformatsiyalardagi rolini ochib berishda markaziy ahamiyat kasb etadi. Individning o'z harakatlarini ongli ravishda anglab, ularni madaniy va ijtimoiy strukturalar bilan bog'lay olishi, uning ijtimoiy o'zgarishlardagi faol agent sifatidagi ishtirokiga zamin yaratadi. Shu tarzda, fanlararo yondashuv nafaqat ijtimoiy tizimlarning murakkab dinamikasini anglashga, balki barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy adolat yo'lida samarali strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy turizm tadbirkorligi Namangan viloyatida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda mavjud resurslar yetarli, biroq ularni maqsadli boshqarish, infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy mexanizmlarni yo'lga qo'yish zarur.

Ijtimoiy turizm — bu qashshoqlik xavfi ostida bo'lgan shaxslarga ular uchun qulay narxlarda ta'tilga chiqish imkoniyatini beruvchi faoliyat turi sanaladi. Biroq, na keng jamoatchilik va na ushbu imkoniyatdan foydalanish ehtimoli yuqori bo'lgan aholining o'zi bu imkoniyatdan ko'pincha bexabar bo'ladi. Ushbu maqolada ijtimoiy turizm doirasida ijtimoiy chetlanishdan aziyat chekayotgan, qashshoqlik xavfi ostidagi shaxslar ishtirok etishi mumkin bo'lgan mavjud tuzilmalar va mexanizmlar tahlil qilinadi hamda mazkur tizim samaradorligini oshirish yo'llari yoritib beriladi.

Statistik ma'lumotlar bilan bir qatorda, so'rovnoma natijalari ham tahlil etiladi. Ijtimoiy turizm xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun ko'pincha past ustuvorlikka ega yo'nalish hisoblanadi. Bu esa, ba'zida ijtimoiy jihatdan imtiyozlardan mahrum qatlamlarning madaniy odatlari yoki nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish ehtiyoji bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, aynan ushbu aholiga mo'ljallangan xizmatlarni yaxshilash mumkin bo'lgan yo'nalishlar aniqlanadi va ularning muammoning yechimiga qanday hissa qo'shishi o'rganiladi. Mavjud ijtimoiy turizm orqali taqdim etilayotgan yordam darajasi yoritilib, ushbu yordamni kuchaytirish bo'yicha aniq takliflar bildiriladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin: Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligiga oid strategik dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilish; tadbirkorlar uchun maqbul bo'lgan ijtimoiy turizm yo'nalishida mahalliy va xalqaro miqyosdagi grant loyihalari ko'lamini kengaytirish hamda soliq imtiyozlarini joriy etish; yillik tarzda o'tkazib kelinayotgan "Turizm haftaligi", "Yoshlar turizm haftaligi" kabi tadbirlarga o'xshash tarzda "Ijtimoiy turizm haftaligi"ni tashkil etish orqali aholining mazkur yo'nalishdagi xizmatlar haqida xabardorligini oshirish; xalqaro tajribani o'rganish, yuqorida keltirilgan pilot loyihalarni amaliyotga joriy etish hamda turizm xizmatlarining inklyuziv (barchani qamrab oluvchi) standartlarini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4895-son qarori (2020-yil 7-aprel): Ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-5106632>
2. Aray Yu. N., Burmistrova T. A. Spetsifika biznes-modeley v sotsialnom predprinimatelstve // Rossiyskiy jurnal menedjmenta. 2014. T. 12. № 4. B. 55–78.
3. Blagov Yu. Ye., Aray Yu. N. Sotsialnoye predprinimatelstvo: problemi tipologii (predisloviye k razdelu) // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. Seriya Menedjment. 2010. Vyp. 3. B. 109–114.
4. Blagov Yu. Ye., Aray Yu. N. Obrazovatelniye programmy v oblasti sotsialnogo predprinimatelstva: mirovoy opyt i rossiyskiye osobennosti // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. Seriya Menedjment. 2014. Vyp. 3. B. 177–197.



5. Akhtar N., Syakir Ishak M. I., Bhawani S. A., Umar K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660–2670.
6. El Ebrashi R. (2013). Social entrepreneurship theory and sustainable social impact. *Social Responsibility Journal*, 9(2), 188–209.
7. Praszker R., Nowak A. (2012). *Social Entrepreneurship: Theory and Practice*. Cambridge University Press. 248 b.
8. Nicholls A. (2006). *Social Entrepreneurship: New Models of Sustainable Social Change*. Oxford University Press. 476 b.
9. Gartner W. B. (1985). A conceptual framework for describing the phenomenon of new venture creation. *Academy of Management Review*, 10(4), 696–706.
10. Sharpley R., Telfer D. J. (2014). *Tourism and Development: Concepts and Issues*. Channel View Publications.
11. Dredge D., Gyimóthy S. (2017). *Collaborative Economy and Tourism: Perspectives, Politics, Policies and Prospects*. Springer.
12. Muhammadjonov X. (2020). O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (3), 115–121.
13. Bosworth G., Bateman M. (2019). *Social Entrepreneurship and Tourism: Philosophy and Practice*. Springer.
14. Hasanov M. R. (2022). Hududlarda inkluziv turizmni rivojlantirish omillari. *Turizm va iqtisodiyot*, 2(1), 87–95.
15. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (2023). *2023-yilgi hududiy turizm reytingi bo'yicha hisobot. Namangan viloyati bo'limi*.
16. Namangan viloyati hokimligi rasmiy sayti — <https://namangan.uz>
17. Global Entrepreneurship Monitor (GEM) (2010). *Global Report on Entrepreneurship*. www.gemconsortium.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>